



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA UNING
FAOLIYATI**

Yakubjanova Gulyora Yorqin qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

“Fizika” yo‘nalishi 1-kurs talabasi

E-mail: xasanovagulnoza1985@gmail.com

Tel: +998946258025

Ilmiy rahbar: Pozilova Muqaddas Xikmataliyevna

Namangan davlat pedagogika instituti

Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: har bir rivojlangan demokratik jamiyatda matbuot, radio va televideniya davlat siyosatiga ham ma’lum ma’noda ta’sir ko’rsatishi, siyosiy jarayonlarning tarkibiy qismiga aylanmog‘i lozim. Biroq bugungi kunda mahalliy matbuot tomonidan o‘quvchilar, tinglovchilar, tomoshabinlar juda oz qismi qamrab oliniyotganligi va mamlakatimiz ijtimoiy hayotiga qisman ta’sir korsatayotganligining guvohimiz. Jamoatchilik fikrining rolini va uni ommaviy axborot vositalarida aks ettirishni yangicha tushunish vaqti keldi. Uning taraqqiyparvar kuchlarning ta’sir etuvchi jihatlarini chuqur tahlil etish kerak. Faqat ana shunday yondashuv asosidagina ommaviy axborot vositalari tomonidan jamoatchilik fikriga ta’sir o‘tkazish imkoniyatlarini tushunish, siyosiy jarayonda obro‘ qozonadigan omillar va shart-sharoitlardan foydalanishni o‘rganib, muayyan masalalar bo‘yicha jamoatchilik fikrini o‘rganish narsalarni o‘z nomi bilan atash - tom ma’nodagi demokratik jamiyat matbuotining haqiqiy qiyofasini belgilab beradi. Aynan shu jarayon bugungi kundagi ommaviy axborot vositalarining faoliyatini belgilab beradi.

Kalit so‘zlar: matbuot, radio va televideniya, internet, veb sayt, axborot, kommunikatsiya, aloqa, OAV (ommaviy axborot vositalari)

СМИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ИХ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

Аннотация: известно, что в каждом развитом демократическом обществе пресса, радио и телевидение должны в определённой степени влиять на государственную политику и становиться составной частью политических процессов. Однако сегодня мы являемся свидетелями того, что местные средства массовой информации охватывают лишь небольшую часть читателей, слушателей и зрителей, оказывая, таким образом, лишь частичное влияние на общественную жизнь нашей страны. Пришло время по-новому осмыслить роль общественного мнения и его отражение в средствах массовой информации. Необходимо глубоко проанализировать воздействующие стороны прогрессивных сил. Только на основе такого подхода можно понять возможности СМИ в формировании общественного мнения, научиться использовать факторы и условия, обеспечивающие авторитет в политическом процессе, а также изучать общественное мнение по конкретным вопросам. Называть вещи своими именами — именно это определяет истинный облик прессы демократического общества. Этот процесс и определяет сегодняшнюю деятельность средств массовой информации.

Ключевые слова: пресса, радио и телевидение, интернет, веб-сайт, информация, коммуникация, связь, СМИ (средства массовой информации)

MASS MEDIA OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND ITS ACTIVITIES

Abstract: It is known that in every developed democratic society, the press, radio, and television must, to some extent, influence state policy and become an integral part of political processes. However, today we witness that the local media cover only a small part of readers, listeners, and viewers, and therefore have only a partial impact on the social life of our country. It is time to understand the role of public opinion and its reflection in mass media in a new way. The influential aspects of progressive forces should be deeply analyzed. Only through such an approach can we understand the opportunities for mass media to influence public opinion, learn to make use of the factors and conditions that earn credibility in the political process, and study public opinion on certain issues. Calling things by their proper names – this is what defines the



true nature of the press in a genuinely democratic society. This very process determines the current activities of the mass media.

Keywords: press, radio and television, internet, website, information, communication, connection, mass media (OAV)

Kirish. Ommaviy axborot vositalari vazifalaridan biri jamiyatni demokratlashtirish va fuqarolar erkinligini ta’minlashdir[1]. Demokratik islohotlarni hayotga tatbiq etish, yangicha dunyoqarashni shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining o’mi va ahamiyati juda katta. O’zbekistonda ommaviy axborot vositalari siyosiy hokimiyat va fuqarolar o’rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib, bog’lab turuvchi, ular orasidagi shaffoflikni ta’minlab beruvchi birdan bir vosita. Shunday ekan ommaviy axborot vositalari to’rtinchi hokimiyat deb bejizga takidlanmagan[1]. Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalari nafaqat jamiyatni axborotdan xabardor qilish vositasi sifatida, balki jamiyat manfaatlari nuqtai nazaridan davlat faoliyatini nazorat qilish vositasida bir qator vazifalarni amalga oshirmoqda. O’zbekiston Respublikasida Konstitutsiyasi va amaldagi barcha qonunlarda axborot olish, tarqatish borasidagi demokratik huquqlar aniq-ravshan bayon etib berilgan. Xususan, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida “Har kim o’zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega” deyilgan[6]. Shuningdek O’zbekiston Respublikasi “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to’g’risida”gi Qonunning 3-moddasida ham “Har bir fuqaroning axborot olish huquqi kafolatlanadi. Har kimning axborot izlash, olish, tadqiq etish, uzatish va tarqatish huquqi davlat tomonidan himoya qilinadi” deyiladi. Hozirda mamlakatimizda jurnalist kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash ishlariga katta e’tibor qaratilmoqda. O’zbekiston aholisining ko’p millatli ekanligi inobatga olinib, 10 dan ortiq tillarda gazetalar chop etilmoqda, bir necha tilda teleko’rsatuv va radioeshittirishlar efirga uzatilayapti[2]. Buning sababi jamiyat har qancha rivojlanmasin jamoatchilik bilan aloqa qilishning eng ta’sirchan vositasi - matbuot, radio, televideniya va Internet bo’lib qolaveradi. Shu bilan birgalikda demokratiya ustuvor bo’lgan davlatda OAV jamoatchilik nazoratining asosiy sub’ yektlaridan biriga aylanadi. Mamlakatimizda ham qabul qilingan “Jamoatchilik nazorati to’g’risida”gi Qonunida OAV jamoatchilik nazoratining sub’yekti sifatida e’tirof etilgan. Zamonaviy nazariy manbalarda qayd etilishi bo’yicha ommaviy axborot vositalari tipologiyasiga ko’ra 5 ta asosiy turga ega[2]. Bular: matbuot (gazeta, jurnal, axborotnomalar va boshqalar), radio, televideniye, axborot agentliklari, shuningdek, Internet saytlari[2]. Bugun ko’pchilikning diqqat-e’tiborini o’ziga jalb etib kelayotgan, to’g’rirog’i, ommaviy axborotning o’ziga xos vositasi sifatida namoyon bo’layotgan Internet veb-saytlari qolgan turlarga qaraganda tezkorligi va imkoniyatlari kengligi bilan ajralib turipdi. Ijtimoiy fikrni shakllantirish va rivojlantirish, davlat hamda fuqarolik institutlarining o’zaro ijtimoiy muloqotida ham OAV muhim vosita sifatida yetakchi o’rin egallaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda fuqarolar ham OAVda sog’lom dunyoqarash bilan uning foydalanuvchilariga aylanishlari lozim[3]. Sababi OAV jamiyat hayotining turli-tuman yo’nalishlarida qabul qilinayotgan huquqiy-me’yoriy hujjatlar, istiqbolli dasturlar, loyihalarni amalga oshirishda, fuqarolarni davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to’g’risida xolis, tezkor va to’la-to’kis xabardor qiladi, fuqarolarning davlat va jamiyat qurilishi jarayonlarida faol ishtirokini ta’minlashga xizmat qilib, bu organlar ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish xizmat qiladigan vositadir[4].

Xulosa: Davlatimiz rahbari tomonidan axborot sohasini isloh etish bo’yicha vazifa etib belgilangan bu chora-tadbirlarning asl mohiyati fuqarolik jamiyatini barpo etishda ommaviy axborot vositalarining mustaqil institut sifatida shakllanishini, siyosiy hokimiyat va fuqarolar o’rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda ochiqlikni hamda fuqarolarning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini to’liq ta’minlashdan iboratdir. Ommaviy axborot vositalari albatta shaffof va adolatli tarzda omma e’tiboriga havola etilishi maqsadga muvofiq. Ommaviy axborot vositalari O’zbekistonda 7 ta tilda va siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy, sport kabi 20 dan ortiq ixtisosliklarda o’z faoliyatini olib bormoqda. Bu kabi jiddiy o’zgarishlar ommaviy axborot sohasida qonunchilik tizimini yanada rivojlantirish, ularning erkin faoliyat yuritishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish lozimligini taqozo etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdeev RF Axborot sivilizatsiyasi falsafasi RF Abdeev. M.VLADOS, 1994 yil.
2. Olshanskiy D.V.Omma psixologiyasi. - SPb.: Piter, 2002.-368 b.
3. Freyd Ommaviy psixologiya va inson "men"ining tahlili Freyd 3. Sevimlilar. T. L.L. Akademik matbuot, 1969 yil.
4. Ortega Gasset J.Der Aufstan der Massen. B,Xalq Verlag, 1959 yil.
5. <https://www.lex.uz/acts/20596>



6. <https://cyberleninka.ru/>

UDK: 37.013.7

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA GEOMETRIK SHAKL TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI VA BOSQICHLARI

Inoyatov Shukurillo Turg’unboyevich
Namangan davlat pedagogika instituti, dotsenti
Ergasheva Xulkaroy Shukurillo qizi
Urganch davlat pedagogika instituti, magistrant
Email: shinoyatov77@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf matematika ta’limida geometrik shakllar haqidagi dastlabki tushunchalarni shakllantirishning samarali usullari va bosqichlari tahlil qilingan. O‘quvchilarda fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish, shakllarni amaliy faoliyat orqali anglash, ularning xossalarni solishtirish va umumlashtirish asosida bilimlarni mustahkamlashning metodik yo‘llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: geometrik shakl, fazoviy tasavvur, boshlang‘ich ta’lim, metodika, ko‘rgazmalilik, amaliy faoliyat, STEM yondashuv.

МЕТОДЫ И ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О ГЕОМЕТРИЧЕСКИХ ФИГУРАХ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Иноятлов Шукурилло Тургунбоевич
Наманганский государственный педагогический институт, доцент
Эргашева Хулкарой Шукурилло кизи
Ургенчский государственный педагогический институт, магистрант
Email: shinoyatov77@gmail.com

Аннотация: В статье анализируются эффективные методы и этапы формирования начальных представлений о геометрических фигурах в начальном математическом образовании. Выделены методические приемы закрепления знаний, основанные на развитии пространственного воображения учащихся, понимании фигур через практическую деятельность, сравнении и обобщении их свойств.

Ключевые слова: геометрическая фигура, пространственное воображение, начальное образование, методика, демонстрация, практическая деятельность, STEM-подход.

METHODS AND STAGES OF FORMING THE CONCEPT OF GEOMETRIC SHAPES IN PRIMARY GRADES

Inoyatov Shukurillo Turgunboyevich
Namangan State Pedagogical Institute, associate professor
Ergasheva Khulkaroy Shukurillo qizi
Urgench State Pedagogical Institute, master's student
Email: shinoyatov77@gmail.com

Annotation: This article analyzes effective methods and stages of forming initial concepts of geometric shapes in primary mathematics education. Methodological ways of consolidating knowledge based on developing spatial imagination in students, understanding shapes through practical activities, comparing and generalizing their properties are highlighted.

Keywords: geometric shape, spatial imagination, primary education, methodology, demonstration, practical activities, STEM approach.

Kirish